



MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi:05-fevral 2022

Ma'qullandi:10-fevral 2022

Chop etildi:15-fevral 2022

KALIT SO'ZLAR

Millatlararo totuvlik,
bag'rikenglik, tinchlik,
urf-odat, tenglik, din.

Jahon keng dunyoda mamlakatlar ko'p lekin bu olamda jannatmakon ona yurtimiz O'zbekistonimiz yakka-yu yagonaligini uning betakror tabiat,boy tarixi,mehnatkash insonlari bilan bir qatorda shu zaminda turli millat va elat vakillarining yagona oila farzandlaridek yashayotganligidan ham ko'rishimiz mumkindir.Xususan,O'zbekiston respublikasi konstitutsiyasining 18-moddasida "barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib,jinsi,irqi,millati,dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi,shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat'iy nazar qonun oldida tengdir"-degan qoida bunday ahillik,do'stlik, hamkorlikning zamonavi, siyosiy-huquqiy ifodasidir.Ma'lumki O'rta Osiyo, xususan, O'zbekiston hududi qadim asrlardan turli madaniyat,til, urf-

MILLATLARARO TOTUVLIK VA DINIY BAG'RIKENGLIK O'ZBEK XALQINING YUKSAK QADRYATIDIR

Siddiqova Gulasal Obidjon qizi

Qo'qon davlat pedagogika instituti Tarix fakulteti Milliy g'oya

ma'naviyatasoslari va huquq

ta'limi yo'nalishi 2-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6177521>

ANNOTATSIYA

Mazkur maqola o'zbek xalqining yuksak qadriyatlaridan biri millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik to'g'risida yozilgan. Shuningdek, O'zbekistonda turli millat va turli din vakillarining tinch-totuv yashashlari uchun olib borilayotgan islohotlar bilan bog'liq ma'lumotlar o'rin olgan.

odatlar,turmush tarziga ega bo'lgan, xilma-xil dinlarga e'tiqod qiluvchi, bir-biriga o'xshash bo'lmagan bir necha xalqlar yashagan o'lkadir.O'zbekistonning geografik nuqtai nazardan muhim savdo yo'llari chorrahasida joylashgani ko'plab davlatlar bilan iqtisodiy aloqalar qilganligii, turli xalqlarning diniy va ma'naviy hayotiga, madaniyati rivojiga salmoqli ta'sir ko'rsatgan.Bu esa o'ziga xos millatlararo hamjihatlik va diniy bag'rikenglikni shakllantirishdagi asosiy omillardan biri,bo'lib xizmat qildi.Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev o'zlarining "Buyuk kelajagimizni mard va oliy janob xalqimiz bilan birga quramiz"kitobida "Ming yillar mobaynida Markaziy Osiyo g'oyat xilma-xil dinlar madaniyatlar va turmush tarzlari tutashgan va tinch-totuv yashagan markaz bo'lib keldi"deb yozganlari bejiz



emas. Haqiqatan ham O'zbekiston zaminida qadim zamonlardan islom dini bilan boshqa dinlar yonma yon yashab, rivojlanib va bu jamiyatning ma'naviy yuksalishiga muayyan hissa qo'shdi.

Bugungi kunda mamlakatimizda statistik ma'lumotlarga ko'ra, 130 millat, elat, xalq va etnik guruhlarining vakillari yashaydi. Ularning har biri o'z milliy madaniy urf odatlari, an'analari, huquqiy tenglikka ega. Ular umumiy uyimiz - O'zbekistonimiz ravnaqi yo'lida birlashib barcha soha va tarmoqlarda fidokorona mehnat qilmoqda. Rivojlangan bozor iqtisodiyoti va kuchli fuqarolik jamiyatiga asoslangan huquqiy demokratik davlat qurishga munosib hissa qo'shmoqdalar.

Barchamizga ma'lumki, hozirgi vaqtda dunyoning turli mintaqalarida millatlararo va dinlararo keskinlik kuchayib bormoqda. Millatchilik diniy murossasizlik bosh ko'tarmoqda. Bu illatlar davlatni yemirib, jamiyatni parchalab, radikal guruh va oqimlar uchun mafkura bazasiga aylanmoqda. Ana shunday murakkab vaziyatda mamlakatimizda turli millat va dinga mansub insonlar o'rtasida do'stlik va hamjihatlikni mustahkamlash maqsadida prezidentimiz 2019-yil 15-noyabrda PF 5876-sonli farmoniga binoan "Millatlararo munosabatlar sohasida O'zbekiston respublikasi davlat siyosati" konsepsiyasi ishlab chiqildi. Ushbu konsepsiyaning asosiy maqsadi respublikaning barcha millat va elatlari sayharakatlarini oliyjanob g'oya - mamlakat suverenitetini mustahkamlash va barqaror rivojlanish, davlatning huquqiy yaxlitligini mustahkamlash maqsadlariga erishish g'oyasi atrofida birlashtirish kuchli va adolatli fuqarolik jamiyatini va demokratik huquqiy davlatni shakllantirishda ularning ishtirokini ta'minlashdan iboratdir.

Shuningdek konsepsiya inson va fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlashga, millat va elatlarning etnik madaniy o'ziga xosligini saqlashga, jamiyatda millatlararo bag'rikenglik, totuvlik va tinchlikni saqlashga yo'naltirilgan.

Binobarin so'ngi besh yil ichida vatanimizda yashayotgan turli millatlar o'rtasida o'zaro hurmat, tenghuquqlik hamda hamjihatlikni mustahkamlash, uning qonuniy asoslarini yaratishga alohida e'tibor qaratildi. Xususan mamlakatimizdagi davlat ta'lim muassasalarida o'qitish yetti tilda olib boriladi. O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi o'z ko'rsatuvlarini o'n ikki tilda namoyish etmoqda, o'ndan ortiq tilda gazeta va jurnallar nashr etilmoqda. Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalari qo'mitasi qoshida 138ta milliy markaz, bundan tashqari 16ta konsepsiyaga tegishli 2300 ga yaqin doimiy tashkilotlar faoliyat yuritadi. Shu bilan birga diniy marifiy soha faoliyatini takomillashtirish bo'yicha ham bir qancha qarorlar qabul qilindi. Xususan Vazirlar Mahkamasi huzurida millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalari qo'mitasi tashkil etildi. Din ishlari bo'yicha qo'mita faoliyati takomillashtirildi. Mana shunday olib borilgan oqilona, milliy siyosat tufayli mamlakatimizda yashayotgan barcha millat vakillari orasida etnik madaniy asoslarda jiplashish jarayonlari sodir bo'ldi.

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, tinchliksiz taraqqiyot va demokratiya bo'lmagani kabi bag'rikengliksiz tinchlik ham bo'lmaydi. Yoshlarga tinchlik va bag'rikenglikning ulug' ne'mat ekanligi, uni qadriga yetish jamiyat tinchligi va



xavfsizligiga tahdid soluvchi omillar to'g'risida zarur ma'lumotlarni berish, ularda O'zbekistonning madaniy rang-barangligi, yurtimizdagi millat va elatlarning urf-odatlarini va an'alarini hurmat qilish shuningdek ana shu madaniy turfaxillikni asrab avaylash kabi ijobiy fazilatlarini shakllantirish muhim ahamiyatga egadir.

O'zbekiston ulkan imkoniyatlar mamlakati, hammamizning umumiy uyimiz. Shunday ekan biz bu jannatmakon ona yurtimiz boyligini saqlash va ko'paytirish bilan birga eng muhim o'zaro totuvligimizni, tinchligimizni asrab avaylamog'imiz biz yoshlarning eng asosiy maqsad va vazifamizdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi. T.: "O'zbekiston", 2003
2. Shavkat Mirziyoyev: "Buyuk kelajagimizni mard va oliy janob xalqimiz bilan birga quramiz"
3. Shavkat Mirziyoyev: "Milliy taraqqiyot yo'limizni qadriyat bilan davom ettirib yangi bosqichga ko'taramiz" T. "O'zbekiston". 2017
4. Shavkat Mirziyoyev: "Yangi O'zbekistoda erkin va farovon yashaylik" T, "Tasvir". 2021
5. Millatlararo munosabatlar sohasida O'zbekiston respublikasi davlat siyosati konsepsiyasi
6. Islom Karimov: "Tinchlik va xavfsizligimiz o'z kuch-qudratimizga hamjihatligimiz va qat'iy irodemizga bo'g'liq" T, "O'zbekiston". 2004
7. Islom Karimov: "Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak" T, "O'ZBEKISTON", 2002
8. G'aybullayev: "Milliy g'oya tarixi va nazariyasi" T, "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati", 2010
9. O'zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyev Birlashgan Millatlar Bosh assambleyasining 2017-yil 19-sentabr 72-sessiyasidagi nutqi
10. Oripov E. Sh. Mahalla va an'anaviy qadriyatlariga yangicha yondashuv zarurati. Falsafa va huquq jurnali. 2017.1-son